

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MUZAFFAROVA DILBAR MAMALATIF QIZI

RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI O‘QUV JARAYONLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Economic Science**

Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi

Raqamli platformalar orqali o‘quv jarayonlarini takomillashtirishning
uslubiy jihatlari.....3

Музаффарова Дилбар Мамалатиф кизи

Методические аспекты совершенствования учебного процесса с помощью
цифровых платформ.....27

Muzaffarova Dilbar

Methodical aspects of improving the educational processes through the use of
digital platforms55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....60

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MUZAFFAROVA DILBAR MAMALATIF QIZI

RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI O‘QUV JARAYONLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4602 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bobojonov Azizjon Babaxanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Otajanov Umid Abdullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismailov Husanboy Muhammadqosim o'g'li
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.23.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-26, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2026-yil "_____" dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.E. Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.S. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T.S. Kuchkarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi oliy ta'lim tizimining mazmuni, tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "2025-yilda global yalpi ichki mahsulotning 15-20 foizdan ortig'i raqamli texnologiyalar bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq iqtisodiy faoliyat hisobiga shakllangan"¹. Shu bilan birga, "OECD tadqiqotlari oliy ta'lim bitiruvchilarining 40–50 foizi o'qishni tugatganidan keyin dastlabki uch yil ichida mehnat bozori talablariga moslashish uchun qo'shimcha kompetensiyalarni egallashga majbur bo'layotganini ko'rsatmoqda"². UNESCO hisobotlariga ko'ra, "raqamli platformalar asosida tashkil etilgan o'quv jarayonlari talabalarning faolligini o'rtacha 25 foizga, akademik natijadorligini esa 10–15 foizga oshirishi mumkin"³. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni metodik, iqtisodiy va boshqaruv jihatdan asoslanmagan holda joriy etish ta'lim sifati va investitsiya samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda. Shu bois oliy ta'lim tizimida raqamli platformalar orqali o'quv jarayonlarini takomillashtirishning uslubiy jihatlarini ilmiy asosda tadqiq etish, ularning samaradorligini aniqlash va boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish raqamli iqtisodiyot sharoitida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda raqamli platformalar orqali o'quv jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ta'lim sifatini oshirish, individuallashtirilgan o'qitishni yo'lga qo'yish va o'quv natijalarini ma'lumotlarga tayangan baholash mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan holda izchil olib borilmoqda. Adaptiv o'qitish va tavsiya algoritmlari orqali shaxsiy ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish, o'quv analitikasi va LMS ma'lumotlari asosida erta ogohlantirish modellarini joriy etish, aralash va masofaviy ta'limda pedagogik dizayn, motivatsiya va ishtirokni oshirish usullari, baholashning raqamli instrumentlari (e-imtixon, proktoring, kompetensiyaga asoslangan baholash)ning ishonchliligi va adolatligini tahlil qilish, ochiq ta'lim resurslari, mikro-kvalifikatsiya va platformalar integratsiyasi orqali ta'limning inklyuzivligi hamda mehnat bozoriga mosligini kuchaytirish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun ham ushbu global tendensiyalar dolzarbdir. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"⁴da kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (QS) reytingining birinchi 1000 talikka kiritish, professor-o'qituvchilar va talabalar ilmiy faoliyatining samaradorligini oshirish hamda maqolalarni xalqaro bazalarda e'tirof ettirish

¹ World Bank. (2025). World development report 2025: Digitalization for growth. World Bank Publications.

² OECD. (2022). Education at a glance 2022: OECD indicators. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/3197152b-en>

³ UNESCO. (2023). Global education monitoring report 2023: Technology in education – A tool on whose terms? UNESCO Publishing.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son

belgilangan. Shuningdek, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston-2030”⁵ strategiyasining 21b-ilovasida “Raqamli universitet” tizimini ikkinchi bosqichini ishlab chiqish bunda “Ilmiy jarayonlarni boshqarish” axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etish vazifalari belgilab berilgan. O‘zbekiston ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalash borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Jumladan, yoshlarni dasturlash bo‘yicha muhim ko‘nikmalarga ega bo‘lishga qaratilgan “Bir million o‘zbek dasturchilari” loyihasi boshlandi. Bundan tashqari, hukumat o‘qituvchilar va talabalarga raqamli savodxonlik bo‘yicha treninglar o‘tkazish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ta’lim tizimi jadal sur‘atlar bilan modernizatsiyalashib borayotganiga qaramay, yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali raqamli ta’lim platformalarini yaratish va ularni ta’lim jarayonining turli bosqichlariga joriy etish, mahalliy ta’lim bozorini rivojlantirishda innovatsion boshqaruv va iqtisodiy yechimlarini topish muhim strategik yo‘nalishlardan hisoblanadi. Shu jihatdan, O‘zbekistonda ta’lim tizimining raqamli transformatsiya qilish yo‘llarini ishlab chiqish metodologiyasini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini qamrab raqamli platformalarni ishlab chiqishni takomillashtirish doirasida xorijiy mamlakatlar va respublikamizda qator ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiyani amalga oshirish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va oliy ta’lim sohasida zamonaviy

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son

texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari yuzasidan qator xorijiy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ulardan G. Westerman, D. Mazzone, C. Matt, H. Demirkan, S.J. Andriole, L.M. Benavides, V. Kaputa, E. Abad-Segura, M.D. Gonzalez-Zamar, J.C. Infante-Moro, A.J. Arguelles-Cruz, F.J. Garcia-Penalvo, M.S. Ramirez-Montoya va boshqalar ushbu mavzuga alohida e'tibor qaratganlar⁶.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida L.M.Andryukhina, N.V.Lomovseva, M.N.Pevzner, P.A.Petryakov, I.Donina, A.M.Kondakov, V.G.Larionov, E.N.Sheremetyeva, I.V.Robert, L.Tsilenko, O.Znamenskaya, V.Vasyukov, Y.Grunina, G.Yanovskaya va boshqa bir qator olimlarning tadqiqotlarida oliy ta'limning raqamli transformatsiyasining asosiy tushunchalari bayon etilgan⁷.

Shuningdek, AKTni joriy etishni, ta'lim tashkilotlarini raqamli transformatsiya qilish strategiyalarini ishlab chiqish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda markaziy o'rinni egallashi bo'yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan S.S.G'ulomov, B.A.Begalov, R.H.Alimov, O.M.Abdullayev, K.A.Sharipov, T.Z.Teshabayev, A.T.Kenjabayev, T.S.Qo'chqarov, I.Ye.Jukovskaya, B.Ismailov, A.M.Abduvohidov, Y. Ilxamova, A.B.Bobojonov, M.K.Abdullayev, B.R.Vafoyev,⁸

⁶ Westerman, G., Calm ejane, C., Bonnet, D., Ferraris, P., McAfee, A. 2011. Digital transformation: a roadmap for billion-dollar organizations. In: MIT Center for Digital Business and Capgemini Consulting, pp. 1–68.; Mazzone DM (2014) Digital or death: digital transformation: the only choice for business to survive smash and conquer. Smashbox Consulting; C. Matt, T. Hess, A. Benlian Digital transformation strategies Bus. Inform. Syst. Eng., 57 (5) (2015), pp. 339-343; H. Demirkan, J.C. Spohrer, J.J. Velsler Digital innovation and strategic transformation IT Prof., 18 (6) (2016), pp.14-18; S.J. Andriole Five myths about digital transformation MIT Sloan Manage. Rev., 58 (3) (2017), pp. 20-22; Benavides, L.M.K. (2020). Digital transformation in higher education: Challenges and perspecti; Kaputa, V. (2021). The role of IT infrastructure in university digital transformation; Abad-Segura E. Sustainable Management of Digital Transformation in Higher Education: Global Research Trends / E. Abad-Segura, M.D. Gonz alez-Zamar, J. C. Infante-Moro // Sustainability. 2020. – 12, no. 5: 2107. URL: <https://doi.org/10.3390/su12052107> (accessed: 22.03.2022); A. J. Arg uelles-Cruz Education in Latin America: Toward the Digital Transformation in Universities // In: Burgos D., Branch J.V. (eds) Radical Solutions for Digital Transformation in Latin American Universities. Lecture Notes in Educational Technology / A. J. Arg uelles-Cruz, F. J. Garc a-Pe alvo, M. S. Ram irez-Montoya. Springer, Singapore. 2021. – [Electronic resource]. URL: <https://doi.org/10.1007/978-981-16-3941-8> (accessed: 22.03.2022).

⁷ Андрюхина Л. М. Концепты цифровой дидактики как основания проектирования опережающего образования педагогов профессионального обучения / Л. М. Андрюхина, Н. В. Ломовцева. и др. // Профессиональное образование и рынок труда. – 2020. – №1 (40); Певзнер М. Н., Петряков П. А., Донина И. А. Цифровая трансформация образовательного процесса в вузе: риски и угрозы //Проблемы современного педагогического образования. – 2020. – №. 69-1. – С. 292-294. Кондаков А. М. Методология проектирования общего образования / А. М. Кондаков, И. С. Сергеев // Педагогика. 2021. – № 1. – С. 5-24; Ларионов В. Г. Цифровая трансформация высшего образования: технологии и цифровые компетенции / В. Г. Ларионов, Е. Н. Шереметьева и др. // Вестник АГТУ. Серия: Экономика. 2021. – №2; Tsilenko, L., Znamenskaya, O., Vasyukov, V., Grunina, Y., & Yanovskaya, G Digital transformation of higher education: key directions, objectives, tools, and benefits for achieving sustainable development of the state //revista jur dica (0103-3506). – 2023. – т. 4. – №. 76.

⁸ Gulyamov S.S., Abdullayev O.M. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar//Toshkent-2019.-T.:Fan 2010; Alimov R.X. Begalov B.A. Axborot–kommunikatsiyalar bozorining shakllanishi va rivojlanishi. Toshkent-2001; Teshabayev T.Z. Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish. Iqt.f.d. ...diss. avtoref. – T.: TDIU, 2019.; Kenjabayev A.T. “Tadbirkorlik faoliyatida axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari” Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2005.; Qo'chqarov T.S Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston Respublikasi g'aznachiligi axborot tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi Toshkent-2019-y.; Jukovskaya I.Y Raqamli iqtisodiyot shakllanishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini statistika faoliyatida foydalanish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi- Toshkent 2020.; Ismailov B. Uzbekistan in the Process of Digitalization // Centre for Economic Research and Reforms under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan [Электронный ресурс]. Abduvohidov A.M., Digital Development of Education and Universities: Global Challenges

kabi yetuk iqtisodchi olimlar tomonidan muhim ilmiy ishlanmalar yaratilgan.

Biroq bu tadqiqotlar O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida talabaga yo'naltirilgan raqamli platformalarni joriy etish jarayonida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish, foydalanuvchi tajribasini tizimli baholash hamda investitsiyalarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari asosida aniqlash metodologiyasi hali to'liq ishlab chiqilmagan. Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi bosqichida, oliy ta'lim tizimida talabaga yo'naltirilgan raqamli platformalarni ishlab chiqishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini chuqur tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish rejasiga muvofiq IL-662204329 "Iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish" loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini raqamli platformalar orqali takomillashtirishga qaratilgan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonlarini raqamli platformalar orqali tashkil etish va boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini raqamli iqtisodiyot, platforma iqtisodiyoti, xulq-atvor iqtisodiyoti va ta'limda raqamli transformatsiya konsepsiyalari asosida tizimli tahlil qilish;

o'quv jarayonlari ishtirokchilarining (talabalar, mentorlar, o'qituvchilar) raqamli platformalardagi faolligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish, ushbu omillarning o'quv xatti-harakatlariga ta'sir mexanizmlarini iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan baholash;

oliy ta'limda o'quv jarayonlarini raqamli platformalar orqali takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish, ularning institutsional dizayni va amaliy joriy etish shartlarini asoslash;

o'quv jarayonlarini raqamlashtirish doirasida ishlab chiqilayotgan platformalarning texnologik va funksional arxitekturasini asoslash, ularni modul asosida kengaytirish va integratsiyalash imkoniyatlarini aniqlash;

raqamli platformalarni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, raqamli transformatsiya jarayonlarining uzoq muddatli ta'lim va ijtimoiy ta'sirini baholash.

raqamli platformalar orqali o'quv jarayonlari samaradorligini baholashning

of the Digital Economy International Journal of Instruction. 2020.11.15.; Ilxamova, Y et al. SVOT analysis of cloud computing problems in higher education //Proceedings of the 5th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. – 2021. – C. 323-327. A.B. Bobojonov "Axborot mahsuloti va xizmatlari marketing strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasini takomillashtirish" DSc ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2024; Abdullayev M.K. Korxonada boshqaruvida axborot tizimlaridan samarali foydalanish jarayonlarining tadqiqi. I.f.f.d. dis. avtoref. – T.: TDIU. 2019.; Vafoyev B.R. Korxonalarda marketing samaradorligini oshirishda axborot tizimlaridan foydalanishni takomillashtirish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU. 2012.;

metodik yondashuvlarini ishlab chiqish, jumladan faollik, qoniqish va akademik natijadorlik o'rtasidagi sababiy bog'liqliklarni iqtisodiy-matematik modellar asosida tahlil qilish;

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-tuzilmaviy birliklar hamda ularning raqamli iqtisodiyot sharoitidagi faoliyat jarayonlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib oliy ta'lim tizimida iqtidorli talabalarni aniqlash, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jarayonlarini raqamli iqtisodiyot sharoitida takomillashtirishga qaratilgan raqamli transformatsiya mexanizmlarini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy va boshqaruv munosabatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida guruhlash, tarkibiy yondashuv, qiyosiy tahlil, miqdoriy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, monografik tadqiqot, so'rovnomalar, PLS-SEM, ekspert tahlil, statistik kuzatish, reyting baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "talabaga yo'naltirilgan platforma" tushunchasining iqtisodiy mazmuni ta'lim oluvchining talab va imkoniyatlariga muvofiqlashtirilgan raqamli ta'lim muhitini shakllantirish orqali ta'lim resurslarini taqsimlash, akademik xizmatlarni personallashtirish va ta'lim natijalarining sifat hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmi nuqta nazaridan takomillashtirilgan;

o'quv jarayonini optimallashtirish, raqamli xizmatlardan foydalanishdagi xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy va noiqtisodiy natijalarni aniqlashga imkon beruvchi raqamli platformani joriy etishning maqsadga muvofiqligini baholashda "yuqori daraja" ($0,75 < MM_{yu} \leq 1,0$), "o'rta daraja" ($0,45 < MM_o \leq 0,75$) va "quyi daraja" ($0 < MM_q \leq 0,45$) miqdoriy mezonlari bo'yicha afzallik shkalalaridan foydalanish taklifi asoslangan;

raqamli platformalarni joriy etish samaradorligini baholash uchun diskontlangan ijtimoiy qiymat, "deadweight-attribution-drop-off" koeffitsiyentlari va vaqt tejalishi qiymatini o'z ichiga olgan takomillashtirilgan SROI-PV modeli ishlab chiqish orqali oliy ta'limda raqamli transformatsiya investitsiyalarining ijtimoiy qaytimi chegarasi ($1 \text{ so'm} \leq IQCh_{RTI} \leq 4,5-5 \text{ so'm}$) asoslangan;

O'zbekistonda talabalarning raqamli platformadan foydalanishining trend modellari asosidagi 2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarning shaxsiy ta'lim trayektoriyalarini boshqarish, ilmiy va innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda o'quv jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladigan "dgs.e-investment.uz" raqamli platformasining konsepsiyasi ishlab chiqildi, texnik arxitekturasi loyihalashtirildi va tajriba-sinov tarzida bir qator universitetlarda joriy etilgan;

talaba portfoliyosi, o'quv yutuqlarini monitoring qilish va individual rivojlanish rejasini avtomatlashtirilgan tarzda yuritish mumkin bo'lgan "dgs.e-investment.uz"

integratsiyalashgan boshqaruv moduli ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etilgan;
talabalar bilan ishlash bo'yicha raqamli monitoring tizimi ishlab chiqilib, oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga tatbiq qilingan;

tizim yordamida real vaqt rejimida talabalar ilmiy ishlardagi ishtirokini va ijtimoiy faolligini tahlil qilish yo'lga qo'yilgan;

talabalar qobiliyatlari, kasbiy yo'nalishlari aniqlanib, individual rivojlanish strategiyalari bo'yicha tavsiyalar berish bo'yicha IQ testi va Karyera testi modullari yaratilgan bo'lib, ular platformaga integratsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi shu bilan belgilanadiki, qo'llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika usullari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflardan tashkilot va korxonalar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalarini samarali rivojlantirishga oid nazariy-metodologik va uslubiy yondashuvlar shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalardan "Raqamli O'zbekiston-2030" milliy konsepsiyasini amalga oshirish, oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim faoliyatini tashkil etish, axborot texnologiyalar markazi faoliyatida keng va samarali joriy etishni takomillashtirishda hamda "IT biznes loyihasi" fani bo'yicha keys-stadilar, ma'ruzalar matni, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini raqamli platformalar orqali takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "talabaga yo'naltirilgan platforma" tushunchasining iqtisodiy mazmunini ta'lim oluvchining talab va imkoniyatlariga muvofiqlashtirilgan raqamli ta'lim muhitini shakllantirish orqali ta'lim resurslarini taqsimlash, akademik xizmatlarni personallashtirish va ta'lim natijalarining sifat hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmi nuqtai nazaridan takomillashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "IT biznes loyihasi" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2026-02-23 sanadagi № 55-son buyrug'iga asosan). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda ta'lim resurslarini taqsimlash, akademik xizmatlarni personallashtirish va ta'lim natijalarining sifat hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "talabaga yo'naltirilgan platforma" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

o'quv jarayonini optimallashtirish, raqamli xizmatlardan foydalanishdagi

xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy va noiqtisodiy natijalarni aniqlashga imkon beruvchi raqamli platformani joriy etishning maqsadga muvofiqligini baholashda "yuqori daraja" ($0,75 < MM_{yu} \leq 1,0$), "o'rta daraja" ($0,45 < MM_o \leq 0,75$) va "quyi daraja" ($0 < MM_q \leq 0,45$) miqdoriy mezonlari bo'yicha afzallik shkalalaridan foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 09-apreldagi № 02/01-01-233-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Alfraganus universiteti talabalarining raqamli profil to'ldirish darajasi 64% dan 91% gacha oshgan, mentorlik uchrashuvlari qayd etilish aniqligi 48% dan 85% gacha ko'tarilgan, ma'lumotlar takroriyliigi 23% ga kamaygan, akademik monitoring aniqligi 34% ga ortib, real vaqtli boshqaruv va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmi shakllangan;

raqamli platformalarni joriy etish samaradorligini baholash uchun diskontlangan ijtimoiy qiymat, "deadweight-attribution-drop-off" koeffitsiyentlari va vaqt tejalishi qiymatini o'z ichiga olgan takomillashtirilgan SROI-PV modeli ishlab chiqish orqali oliy ta'limda raqamli transformatsiya investitsiyalarining ijtimoiy qaytimi chegarasi ($1 \text{ so'm} \leq IQCh_{RTI} \leq 4,5-5 \text{ so'm}$)ni asoslash taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 09-apreldagi № 02/01-01-233-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Toshkent arxitektura-qurilish universitetida SROI-PV modelini qo'llash orqali raqamli investitsiyalarning ijtimoiy qaytimi empirik jihatdan aniqlanib, har bir sarflangan 1 so'm investitsiya evaziga 4,5-5 so'm ijtimoiy qiymat yaratilishi ilmiy asoslangan holda tasdiqlangan;

O'zbekistonda talabalarining raqamli platformadan foydalanishining trend modellari asosida ishlab chiqilgan 2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 09-apreldagi № 02/01-01-233-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlarida raqamli platformalar orqali o'quv jarayonlarini takomillashtirishning istiqboldagi asosiy parametrlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 14 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi qonuniga asosan "DGS (Digital Gifted Student)" nomli dasturiga № DGU 45424 raqamli hamda "Digital Gifted Students(DGS)ma'lumotlar bazasi" nomli dasturiga № DGU 46407 guvohnomasi olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha

jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e’tirof etgan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi mahalliy va 4 ta xorijiy jurnallarda, shuningdek xalqaro va mahalliy ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta ma’ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 150 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish mexanizmlari”** deb nomlangan birinchi bobida mavzuning o‘rganilganlik darajasi, oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiyaning nazariy va konseptual asoslari batafsil yoritilgan. Ushbu bobda oliy ta’lim muassasalarini raqamli transformatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari batafsil ochib berilgan va oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini raqamli transformatsiya qilishning xorij tajribalar tahlillarini hamda amaliyotlar yoritilgan.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tahlil jarayonida raqamli transformatsiya bu bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan evolyutsion jarayonliligi aniqlandi. Bu jarayon “raqamli”, “raqamlashish” va “raqamli transformatsiya” kabi atamalar o‘rtasidagi konseptual bog‘liqlik orqali izohlandi. Ushbu atamalar ya’ni raqamli bu analog ma’lumotlarni raqamli formatga o‘tkazishni ifodalaydi. Raqamlashish mavjud jarayonlarni raqamli texnologiyalar yordamida optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Raqamli transformatsiya esa tashkilotning boshqaruv modeli, institutsional madaniyati va biznes jarayonlarining texnologik integratsiya asosida tubdan yangilanishini ifodalaydi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli ekotizim shakllantirishda “talabaga yo‘naltirilgan platforma” tushunchasi ta’lim resurslarini taqsimlashda, akademik xizmatlarni personallashtirishda va ta’lim natijalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda hamda boshqaruv mexanizmini asoslashda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.


Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, oliy ta’lim o‘quv jarayonlarida raqamli transformatsiya qilishni to‘rt komponent asosida tahlil qildik. Birinchi komponent transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlari, bu jarayon, texnologiya, boshqaruv va madaniyat o‘zgarishi; ikkinchisi ustuvorliklarni belgilash mezonlari, bular vaqt samaradorligi, xarajatlarni optimallashtirish, tarmoq effekti yaratish; uchinchisi

resurslarni tashkil etish mexanizmlari ya'ni moliyaviy, tashkiliy va texnologik infratuzilma; to'rtinchi yakuniy natijalarni o'lchash indikatorlari ya'ni samaradorlik ko'rsatkichlari, ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir, natijadorlik darajasi.

Tadqiqot ishida raqamli transformatsiya evolyutsion xarakterga ega ekanligi oddiy raqamlashtirishdan boshqaruv va madaniyat darajasidagi tub o'zgarishlargacha bosqichma-bosqich rivojlanishi asoslab berildi.

Biroq mavjud modellar talabning o'quv faoliyatini butun hayotiy sikl doirasida qamrab olmayotgani va platformaviy integratsiya yetishmasligi ilmiy muammo sifatida aniqlandi. Aynan mazkur nazariy va amaliy bo'shliq tadqiqot doirasida yangi kompleks konseptual model ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi.

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim tizimida talabaga yo'naltirilgan raqamli platformaning kompleks konseptual-nazariy modeli ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Iqtidorga yo'naltirilgan raqamli platformaning kompleks konseptual-nazariy modeli⁹

⁹ Muallif tadqiqotlari asosida olingan.

Model olti darajali ierarxik tuzilmaga ega bo'lib, eng yuqori daraja raqamli iqtisodiyot paradigmasi modelning umumiy nazariy va metodologik kontekstini ifodalaydi. Ushbu paradigma doirasida konseptual asoslar darajasi uchta o'zaro to'ldiruvchi yondashuvni o'z ichiga oladi: platforma iqtisodiyoti (ko'p tomonlama bozor va tarmoq effektlari), xulq-atvor iqtisodiyoti (talaba motivatsiyasi va qaror qabul qilish mexanizmlari) va raqamli transformatsiya (operatsion jarayonlarni tubdan o'zgartirish).

Operatsional darajada kirish (talabaning ehtiyojlari va imkoniyatlari) hamda determinantlar tizimi (texnik-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik 12 komponent) modelga resurs va omillar oqimini ta'minlaydi. Boshqaruv mexanizmlari darajasi birinchi ilmiy yangilik to'rt o'zaro bog'liq elementdan iborat: ta'lim resurslarini taqsimlash, akademik xizmatlarni personallashtirish, sifatni boshqarish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash.

DGS yadrosi darajasida talaba subyekting identifikatsiyasi, monitoringi, rivojlantirilishi va baholanishi sikl shaklida amalga oshiriladi. Texnologik infratuzilma darajasi (sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli texnologiyalar, blockchain, LMS integratsiyasi) modelning amaliy ishlashini ta'minlaydi.

Modelning chiqish ko'rsatkichlari Y_1 (talabalar faolligi), Y_2 (qoniqish darajasi) va Y_3 (akademik natijadorlik) PLS-SEM yondashuvi orqali baholanadi. Teskari aloqa mexanizmi modelni dinamik, o'z-o'zini takomillashtiruvchi tizim sifatida shakllantiradi.

Ushbu konseptual yondashuv raqamli platformalarda ishtirokchilar faolligini belgilovchi determinantlar tizimini shakllantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi hamda tadqiqot doirasida "talabaga yo'naltirilgan platforma" tushunchasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqish imkonini berdi.

Talabaga yo'naltirilgan platforma bu talabaning individual imkoniyatlari, kompetensiyalari va rivojlanish trayektoriyasiga moslashuvchi hamda akademik jarayonlarni personalizatsiya qilish orqali ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan integratsiyalashgan raqamli ekotizimdir.


Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan konseptual yondashuv hamda "talabaga yo'naltirilgan platforma" tushunchasiga berilgan mualliflik ta'rifi raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini boshqarishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur nazariy qarashlar keyingi boblarda talabaga yo'naltirilgan platformalarni joriy etish mexanizmlari, ularning boshqaruv samaradorligi, texnologik infratuzilmasi hamda ta'lim jarayoniga ta'sirini kompleks tahlil qilish uchun metodologik asos sifatida qo'llaniladi.

Dissertatsiyaning **"Platformalar asosida talabalarning operatsion jarayonlarini raqamli transformatsiya qilishning uslubiy asoslari"** deb nomlangan ikkinchi bobida talaba bilan bog'liq operatsion jarayonlarini raqamli transformatsiya qilishning konseptual yondashuvlar, talabaga yo'naltirilgan platformalar va yechimlar tahlili qilish natijalari hamda raqamli transformatsiyani talabalarning operatsion jarayonlariga ta'sirini baholash algoritmi ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida bitiruvchilar sonida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika

qo‘mitasining (stat.uz) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari soni 211,2 ming kishini tashkil etib, 2014-yilga nisbatan 3,1 baravar oshgan (2-rasm).

Biroq miqdoriy o‘shish bilan birga mehnat bozorida muvozanat saqlanmagan. Milliy statistika qo‘mitasi va kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatda umumiy bandlik darajasi 2014-yildagi 67,7%dan 2024-yilda 68,3%ga yetdi va bu davr mobaynida deyarli o‘zgarmadi. Shu bilan birga, kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 6-avgustdagi rasmiy ma‘lumotiga ko‘ra, 2024-yil bitiruvchilari ichida 41% ish bilan ta‘minlangan, 59% (126 ming nafar) hali ish topa olmagan.



2-rasm. Oliy ta‘lim tashkilotlarini bitiruvchi talabalar soni¹⁰


Mazkur ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta‘lim qamrovining keskin kengayishiga qaramay, bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashishi yetarli darajada ta‘minlanmagan. Bu holat oliy ta‘lim tizimida an‘anaviy boshqaruv usullarining samaradorligi cheklanganligini va talabalar bilan ishlash jarayonlarini, ayniqsa karyera rejalashtirish, mentorlik hamda ish beruvchilar bilan bevosita aloqalarni raqamli platformalar orqali individuallashtirish va avtomatlashtirish zaruratini asoslab beradi.

Shuningdek, omillarning ta‘sirini aniqlash uchun texnik-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik omillarning raqamli platformadagi faollik hamda qoniqish darajasiga ta‘sirini aniqlash uchun bir qator ilmiy gipotezalar shakllantirildi (3-rasm).

Xususan, H13-platformadagi faollik darajasi talabanning ta‘lim platformasidan qoniqishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. H14-platformadan qoniqish darajasi talabanning akademik natijalariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Ushbu gipotezalarni asoslash uchun sifat tadqiqot usullaridan foydalanish talab etiladi. Talabalarning raqamli platformalardagi faolligi hamda ta‘lim platformalaridan qoniqish darajasiga ta‘sir etuvchi omillar ko‘p qirrali va subyektiv xususiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy-psixologik va texnik-iqtisodiy omillar hisoblanadi.

¹⁰ <https://www.stat.uz>



3-rasm. Universitet talabalarining raqamli platformalarida faolligi va qoniqishiga omillar ta'sirini baholash modeli¹¹

Bu omillar turli talabalarda turlicha namoyon bo'lishi, ularning tajribasi, shaxsiy xulq-atvori, psixologik holati va ijtimoiy muhitiga bog'liq holda farqlanishi mumkin deb hisoblanildi. Mazkur sharoitda gipotezalarni shakllantirish va ularning amaliy asoslanganligini ta'minlash maqsadida sifat tadqiqot metodlaridan foydalanish zaruriy ilmiy yondashuv sifatida qaraladi. Xususan, intervyular, fokus-guruh suhbatlari, kuzatuv metodlari yordamida talabalar nuqtayi nazaridan raqamli platformalarga bo'lgan munosabat, foydalanishdagi to'siqlar, motivatsiya omillari va qoniqish manbalari chuqur o'rganildi. Sifat tadqiqotlari orqali gipotezalarni nazariy emas, balki real, kontekstual va tajribaviy asosda shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa miqdoriy tadqiqotlar uchun aniq indikatorlar, o'lchov mezonlari va respondentlarga tushunarli bo'lgan ifodalarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida 2024-yil sentyabr - 2025-yil fevral oylarida O'zbekiston Respublikasining 5 ta yetakchi oliy ta'lim muassasasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Alfraganus universiteti talabalari orasida onlayn so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada jami 500 nafar talaba ishtirok etdi. Anketa 5-balli Likert shkalasi asosida tuzilib, 29 ta savoldan iborat bo'ldi. Anketa ishonchliligi Cronbach's Alpha = 0,89 ko'rsatkichi bilan tasdiqlandi. Konstruktsiyalarning konvergent validligi AVE > 0,5 mezonini asosida, diskriminant validligi Fornell-Larcker mezonini bo'yicha tekshirildi. Barcha indikatorlarning yuklanish koeffitsiyentlari maqbul chegaralarda bo'ldi.

¹¹ Muallif tadqiqotlari asosida olingan

Raqamli ta'lim platformalarining samaradorligini baholash va talabalarining ushbu tizimlardagi faolligi hamda qoniqish darajasiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish anketa so'rovnomalari natijalariga asoslanadi. Anketa savollari gipotezalar uchun asos bo'luvchi o'zgaruvchilar sifatida o'zaro bog'liq va ko'p omilli xarakterga ega bo'lgani sababli, ularning bevosita va bilvosita ta'sirlarini aniqlashda an'anaviy regressiya usullaridan foydalanish samarasiz hisoblanadi. Shu bois, talabalarining raqamli platformalardagi faolligi va ularning qoniqishini aniqlashda PLS-SEM modelidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ushbu uslub yordamida shakllantirilgan gipotezalar asosida omillarning o'zaro bog'liqliklari va ta'sirlarini o'rganildi. Bunda natijaviy o'zgaruvchilar sifatida quyidagilar belgilandi:

Y_1 - universitetlarning raqamli platformalarida talabalar faolligi;

Y_2 - universitetlarning raqamli platformalaridan talabalarining qoniqishi;

Y_3 - universitet talabalarining raqamli platformalaridan foydalanishdagi akademik natijadorlik.


Bog'liq o'zgaruvchi sifatidagi yuqorida tizimlashtirilgan texnik-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik omillar bo'yicha shakllantirilgan savolnomalar bo'yicha olingan natijalar o'zgaruvchi sifatida qabul qilinadi.

Universitet talabalarining raqamli platformalarida faolligi va qoniqishiga omillar ta'sirini baholash modeliga asoslangan holda Smart PLS dasturidagi asosiy natijalar PLS-SEM modelida konstruktsiyalar ya'ni, yashirin o'zgaruvchilar orasidagi ta'sir darajasini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich "Path Coefficients" yo'l koeffitsiyentlardir.

Bu biz yaratgan gipotezalar modelida konstruktsiyalar bir-biriga qanchalik kuchli va qanday yo'nalishda ta'sir ko'rsatayotganini o'lchovchi eng muhim statistik ko'rsatkich hisoblanadi. Universitet talabalarining raqamli platformalarida faolligi va qoniqishiga omillarning ta'lim natijalariga ta'sirini baholashning tuzilmaviy modeli natijalari 4-rasmda keltirilgan.

Tadqiqotimizdan olingan natijalar talabalarining platformadan qoniqishining (Y_2) yo'nalishi bo'yicha foydalanishdagi faolligiga (Y_1) ta'sirini ko'rsatdi. Model natijalariga ko'ra, talabalarining raqamli platformadan qoniqishi faolligiga statistik jihatdan ahamiyatli, lekin amaliy jihatdan kichik salbiy ta'sir ko'rsatdi (path coefficient = -0,073, $t = 4,480$, $p < 0,001$). Effekt o'lchami kichik bo'lganligi sababli ushbu bog'liqlikni mutlaq qoida sifatida talqin qilish to'g'ri emas. Mazkur natija ikki xil mexanizm orqali izohlanishi mumkin: birinchidan, qoniqish darajasi yuqori bo'lgan talabalar platformadan maqsadli va samarali foydalanadilar qisqaroq vaqt sarflab, ko'proq natijaga erishadilar (samaradorlik effekti); ikkinchidan, qoniqgan talabalar parallel ravishda an'anaviy ta'lim manbalari (kutubxona, ustozlar bilan bevosita muloqot, ilmiy seminarlar) bilan faol ishlashi mumkin, bu esa raqamli platformadagi vaqt sarfini kamaytirishga olib keladi.

(Y_1) faollikdan (Y_3) akademik natijadorlikka o'tuvchi yo'l koeffitsiyentlarini anglatdi. Talabalarining platformadagi faolligi akademik natijadorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmayapti (path coefficient = 0.013, $t = 0.443$, $p = 0.658$). Bu yo'nalish statistik jihatdan ahamiyatsiz hisoblandi.



4-rasm. Universitet talabalarining raqamli platformalarida faolligi va qoniqishiga omillarning ta'lim natijalariga ta'sirini baholashning tuzilmaviy modeli¹²

Bu shuni anglatadiki, faollikning o'zi natijaga olib kelmaydi, balki faollik sifati, ya'ni qanday kontent, qanday topshiriq va qanday yondashuvlar bilan band bo'lish talabalar uchun muhimroq ekanligini ko'rsatadi.

Olib borilgan "Outer Loadings" ko'rsatkichi natijalariga ko'ra, talabalarining raqamli platformalarda faolligiga atrofda gilarining ya'ni do'stlar, ustozlar (Q_{13}) salbiy ta'siri kuzatilmoqda. Shuningdek "yaqinlarimning qo'llab-quvvatlashi platformalarda faol bo'lishimga yordam berishi" bo'yicha tanlangan omil (Q_{14}) statistik jihatdan ahamiyatsizdir. Raqamli ta'lim platformalardan talabalarining kunlik foydalanish holati ham statistik jihatdan ahamiyatsiz topilgan. Talabalar raqamli ta'lim platformalari ta'lim sifatini oshirishga yuqori ta'sirga ega deb hisoblanmaydi (Q_{28}). Shuningdek, universitet raqamli platformalari ta'limda yutuqlarga erishishga umuman ta'siri yo'q deb hisoblashadi (Q_{29}).

Tahlil natijalariga ko'ra boshqa barcha keltirilga omillar talabalarining raqamli platformalardan foydalanishiga ijobiy va sezilarli ta'sirga ega. Tahlilning keyingi muhim ko'rsatkichi "Outer Weights" hisoblanib tuzuvchi o'lchov modeli uchun ishlatiladigan koeffitsiyentlar bo'lib, har bir indikatorning o'ziga tegishli konstruktsiyani shakllantirishdagi nisbiy hissasini ya'ni vazn koeffitsiyentini ko'rsatadi.

Talabalarining universitet raqamli platformalardan qoniqish konstruktsiyasi bo'yicha "Outer Weights" da hisoblanib, natijalari talabalar qoniqishining ko'proq funksional va texnik omillar bilan belgilanishini ko'rsatdi. Jumladan, platformaning texnik barqarorligi (Q_{16}), interfeys qulayligi (Q_{15}), video darslar va testlar sifati (Q_{17} , Q_{18}) hamda ijtimoiy hamkorlik va interaktivlik imkoniyatlari (Q_{25} , Q_{26}) qoniqish darajasining muhim determinantlari sifatida shakllandi. Tahlil natijalari talabalar platformalardan foydalanganda texnik muammolarsiz, qulay interfeysda,

¹² Smart PLS dasturi asosida olingan natijalar

sifatli kontent orqali o'qish jarayonini afzal ko'rilgan ishlar kuzatildi va ularning qoniqishi, xizmatning shakli va mazmuniga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Modelda akademik natijadorlik (Y_3) konstruksiyasini shakllantiruvchi indikatorlar (Q_{28}, Q_{29}) past yuklama ko'rsatkichlariga ega bo'ldi va statistik jihatdan ahamiyatsiz deb topildi. Shu bilan birga, talabalarning raqamli platformalarda faolligi (Y_1) akademik natijadorlikka (Y_3) va platformadan qoniqishi (Y_2) akademik natijadorlikka (Y_3) yo'nalishlari ham $P\text{-value} > 0.05$ bo'lganligi ushbu bog'liqliklarning empirik jihatdan asoslanmaganligini ko'rsatadi. Ushbu natija shuni anglatadiki, talabalarning raqamli platformalarda faolligi va platformadan qoniqishi akademik natijadorlikka masalan reyting, baholar va o'quv muvaffaqiyat ko'rsatkichlari bevosita ta'sir ko'rsatmaydi. Biroq, boshqa oraliq omillar masalan, o'zlashtirish strategiyalari, motivatsion intensivlik, individual mustaqil ishlar samaradorligi bu o'zgaruvchilar o'rtasida vositachilik rolini o'ynaydi.

Raqamli ta'lim platformalarida talabalar faolligi asosan texnik-iqtisodiy imkoniyatlar va individual motivatsiya bilan belgilanadi. Qoniqish darajasi esa foydalanilayotgan platformaning texnik qulayligi, ishonchliligi va interaktivlik darajasi kabi sifat ko'rsatkichlariga bevosita bog'liq. Akademik natijadorlik esa ushbu ikki o'zgaruvchidan to'g'ridan-to'g'ri ta'sirlanmay, murakkabroq tizimli omillar orqali shakllantirildi.

Tahlil natijalari oliy ta'lim muassasalari internet infratuzilmasini mustahkamlashi, raqamli savodxonlik bo'yicha treninglar tashkil etishi va platformalarning interaktivlik darajasini oshirishi lozimligini ko'rsatdi. Akademik natijadorlikni yuksaltirish uchun esa raqamli ta'limning didaktik va pedagogik sifatini ta'minlash hamda har bir talabaga shaxsiylashtirilgan o'quv yo'llarini yaratish zarur.

Shu munosabat bilan tadqiqotda raqamli platformani joriy etishning maqsadga muvofiqligini kompleks baholashga qaratilgan miqdoriy mezonlar tizimi ishlab chiqildi. Mazkur tizim o'quv jarayonini optimallashtirish, raqamli xizmatlardan foydalanishdagi xavfsizlikni ta'minlash hamda iqtisodiy va noiqtisodiy natijalarni aniqlash imkonini berdi. Ishlab chiqilgan baholash shkalasiga ko'ra, maqsadga muvofiqlik indeksi (MM) uchta daraja bo'yicha tasniflandi. Yuqori daraja ($0,75 < MM_{yu} \leq 1,0$) platformaning to'liq maqsadga muvofiq ekanligi va zudlik bilan joriy etish mumkinligini bildirdi; o'rta daraja ($0,45 < MM_o \leq 0,75$) qo'shimcha tayyorgarlik va ma'lum shartlarning bajarilishi zarurligini ko'rsatdi; quyi daraja ($0 < MM_q \leq 0,45$) esa muassasa infratuzilmasini avval takomillashtirish lozimligini ko'rsatdi. Ushbu uch bosqichli mezonlar tizimi oliy ta'lim muassasalariga raqamli platformalarni joriy etishdan oldin ob'ektiv va miqdoriy asoslangan qaror qabul qilish, resurslarni maqsadli taqsimlash hamda raqamli transformatsiya jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini berdi.


O'tkazilgan empirik tahlillar raqamli platforma samaradorligi texnologik omillar bilan cheklanmay, foydalanuvchilarning psixologik xususiyatlari va boshqaruv mexanizmlari bilan ham uzviy bog'liqligini tasdiqladi. Shu bilan birga, sababiy bog'liqliklarni aniqlashning o'zi yetarli emasligi, ularni amaliy boshqaruv tizimlariga integratsiyalash zarurati mavjudligi aniqlandi. Mazkur ehtiyoj tadqiqotning navbatdagi ilmiy yangiligini shakllantirish uchun metodologik asos

vazifasini bajardi.

Dissertatsiyaning “Oliy ta’lim tizimida talabaga yo‘naltirilgan platformalarni ishlab chiqish” deb nomlangan uchinchi bobida talaba platformalarini ishlab chiqishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, universitetlarda talabaga yo‘naltirilgan DGS platformasini joriy etish, talabalarga yo‘naltirilgan raqamli platformalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi natijalari taqdim etilgan.

